



ABDURAUUF FITRATNING “CHIN SEVISH” DRAMASI HAQIDA MULOHAZALAR

Abduxakimova Dildora,
ToshDO‘TAU 1-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207438>

***Annotatsiya:** Abdurauf Fitratning “Chin sevish” dramasida millatparvarlik, o‘z yurtini sevish g‘oyalari targ‘ib qilingan. Mustamlakachilik zulmi, vatanparvarlik kabi mavzular ham ilgari surilgan.*

***Kalit so‘z:** Jadidchilik, drama, vatanparvarlik, mustamlakachilik, obraz, sujet.*

Jadidchilik oqim emas harakat. Ijtimoiy-siyosiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi, deydi professor Begali Qosimov o‘zining “Milliy uyg‘onish” kitobida.

Xalqini ma’rifatli bo‘lishini orzu qilgan, ularni jaholat uyqusidan uyg‘otishga harakat qilgan, millatparvar bo‘lishga undagan chinakam jonkuyar jadidlardan biri Abdurauf Fitrat edi. Fitrat o‘zining bir qator millatparvarlik ruhida yozilgan dramalari, publisistik maqolalari, ilmiy risolalari bilan el-yurt ravnaqiga o‘zining beminnat hissasini qo‘shdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asarlarni yozishdan maqsad xalq, omma, bu millatparvarlik ruhida yozilgan asarlarni o‘qisin va jaholat uyqusidan uyg‘onsin. Biz Fitratni chinakam jadidchilik harakatining namoyondalaridan deya olamiz.

Fitratning barcha dramalarida millatparvarlik, yurtparvarlik tamoyillari yetakchilik qiladi. Shulardan biri “Chin sevish” dramasidir. Bu dramani to‘liq o‘qib chiqmagan kitobxon sarlavhaga bir qarashda ishq-muhabbat, oshiq-mashuqlik masalalari targ‘ib qilingan deb o‘ylaydi. Aslini olganda, bu asar tarixning qora kunlari, mustamlakachilik zulmiga nisbatan ochiq nafrat, chirkinlik kabi illatlarni ochib beradi. Dramadagi Karimbaxshxon timsolida yozuvchi o‘zining millatparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan. Uning tilidan “Ovrupaliklarda insof, adolat degan tushuncha yo‘q. Adolat tushunchasi degan narsa Ovrupa yuragiga kirmas, bu o‘g‘urli qush u qorong‘u yerlarda yanglishib kirsa ham bo‘g‘ulib qola, yashay olmas. Va yana “Ovrupa bilimlarini o‘rganmak, albatta, kerakdir. Ovrupada o‘qimoq, ovrupalilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, unlardan

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



o‘zimizni saqlag‘ani, tishli, tirnoqli bo‘lmoq uchun kerakdir”, degan so‘zlari orqali muallif o‘zining shaxsiyatini ochib bermoqda. Asardagi voqealar Hindistonning ustidan hukmronlik qilmoqchi bo‘lgan Angliya haqida gap ketmoqda. Fitrat bu bilan nima demoqchi? Bu voqealar nafaqat Hindistonda, balki bizning o‘lkamizda ham sodir bo‘layotgan edi. Fitrat yashagan davr ya‘ni XX asrlarlarda o‘zbeklarning ustidan chor Rossiyasi hukmronlik qilardi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning qora tomonlari juda ham ko‘p.

Fitrat tariximizning qora sahifalarini qog‘ozga o‘rab ovrupaliklar misolida ochiq-oydin ko‘rsatib beradi. Mana, Fitratning millatparvar, yurtparvar ekanligining isboti. Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek, xalqning boshiga og‘ir musibat tushganda o‘z xalqiga xiyonatkor, sotqin kimsalar ham topiladi. Ular millatning mehrobidan chiqqan chayonlardir. Turkiy millatning mehrobidagi chayonni Fitrat Rahmatullohxon obrazi timsolida ochib beradi. Xususan, uning Karimbaxshxonga qarata: “Xon sohib, ovrupalilarda adolat tushunchasi kuchlidir. Xususan, angliz millati ko‘p erkchidir. Hindiston erkina qarshi turmaslar, deb o‘ylaymiz, deya aytgan so‘zlari uning shaxsiyati xiyonatkor ekanligini ko‘rsatib turibdi. Fitratning ijodiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q. “Chin sevish” dramasida faqat millatparvarlik g‘oyasi emas, balki xronotop haqida ham ma‘lumot berilgan. Gulshanoy Yo‘ldoshaliyeva: “Fitratning “Chin sevish” dramasidagi makon va zamonning boshqa mamlakatga ko‘chishining sabablari va xronotopining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Fitratning dramasini tahlil qilish jarayonidagi o‘ziga xoslik shundan iboratki, drama har ikki davlatning siyosiy, ijtimoiy, muhabbat mavzulariga birdek tushadi”, deb fikr bildiradi.

Dramada Zulayho - ayol obrazi ham bor. Uni ramziy obraz sifatida Vatan deb, go‘zalligini yurtdagi boyliklar sifatida tahlil qilsa bo‘ladi. Asardagi Nuriddin millatparvar shaxs bo‘lganligi uchun Vataniga shikast yetishini xohlamaydi, o‘z nafsiga qarshi bora oladigan sobit kimsa. Rahmatullohning “haqiqiy vatanparvar” ekanligiga yana bir isbot, u mana shu Vataniga ozor bermaslikni o‘ylamagani, nafsiga qarshi kurasha olmagan.

Xulosa shuki, har bir millatning mustaqilligi, ota-bobolarining turmush tarzi haqida so‘zlovchi, uni asrlardan asrlarga opichlab, sog‘-omon yetkazishda adabiyotning, xususan, badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Mustaqillikni qo‘lga kiritish va uni saqlab qolishda xalqning birligini, g‘urur va orini to‘lqinlantiruvchi beqiyos kuch ham adabiyotda mujassamdir. Shunday ekan, har bir xalq o‘z

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



adabiyotini asrab avaylashi, uni yanada rivojlantirishi, avlodlarga yetkazishda kamarbasta bo‘lishi ham farz, ham qarz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. -T.: Ma’naviyat, 2004.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar.1 jild. -T: Ma’naviyat, 1999.
3. Gulshanoy Yo‘ldoshaliyeva. “Filologiya masalalari-yosh tadqiqotchilar nigohida“ maqolasi.

